

## LI XE JO ASARLARIDA GENDER TENGLIK MUNOSABATINING ILGARI SURILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653599>

**Bazarova Shahlo Shuxratovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti

Sharq tillari fakulteti Uzoq sharq tillari kafedrasida katta o‘qituvchisi

[shaxina@2444.mail.ru](mailto:shaxina@2444.mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada XX asr boshida qizg‘in ma‘rifatparvarlik faoliyatini yuritgan koreys adibi Li Xe Jo asarlarida gender tengligi munosabatlari, feministika, feministik qarashlar, ayollarning huquqlari va bu huquqlarga ayollarning munosabati haqidagi qarashlar tahlil etilgan. Vafodorlik hamda sadoqatlilik azaldan koreys ayollariga xos milliy-mental tushunchalar sifatida belgilandi. Uning hikoyalarida an‘anaviy koreys adabiyoti, masalan, insonning dunyodagi o‘rni va ijtimoiy faoliyatining ma‘nosi muammosiga bag‘ishlangan romanlari bilan bog‘liqlikni topish mumkin. Li Xe Jo asarlarida haqiqiy hayoti xuddi tushdagidek o‘tadigan qahramonlar bor, lekin natijada ular allaqachon boshqa, ichki o‘zgargan odamlar tomonidan uyg‘onadi. Boylik asosiy o‘lchov sifatida e‘tirof etilgan zamonaviy jamiyat qadriyatlariga tanqidiy qarash insonni hayotiy yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishga olib keladi va u ichki uyg‘unlikka erishish uchun birinchi qadamni qo‘yadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Feministika, “Ozodlik qo‘ng‘irog‘i”, modernizatsiya, emansipatsiya, gender tenglik, mikrotizim, satirik ertak, sinsosol, Kabo*

## ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЛИ ХЕ ДЖО

**Базарова Шахло Шухратовна**

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Факультет восточных языков

Старший преподаватель языков Дальнего Востока

[shaxina@2444.mail.ru](mailto:shaxina@2444.mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

*В статье анализируются взгляды корейской писательницы начала XX века Ли Хи Джо на гендерное равенство, феминизм, феминистские взгляды, права женщин и отношение женщин к этим правам. Верность и преданность*

издавна определялись как национально-ментальные понятия, характерные для корейских женщин. Его рассказы восходят к традиционной корейской литературе, например, к его романам о проблеме места человека в мире и значении социальной деятельности. В творчестве Ли Хи Джо есть герои, реальная жизнь которых похожа на сон, но в результате они уже пробуждаются другими, внутренне преобразенными людьми. Критический взгляд на ценности современного общества, где главным мерилom признается богатство, побуждает человека пересмотреть свой жизненный путь и сделать первый шаг к достижению внутренней гармонии.

**Ключевые слова:** феминизм, колокол свободы, модернизация, эмансипация, гендерное равенство, микросистема, сатирическая сказка, синсосол, кабо.

## GENDER EQUALITY OF LEE HEE JO'S WORKS

**Bazarova Shahlo Shuxratovna**

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Faculty of Eastern Languages

A senior teacher at the Department of Far Eastern Languages

[shaxina@2444.mail.ru](mailto:shaxina@2444.mail.ru)

### ABSTRACT

*The article analyzes the views of the early XXth century Korean writer Lee Hee Jo on gender equality, feminism, feminist views, women's rights and women's attitude towards these rights. Loyalty and devotion have long been defined as national-mental concepts characteristic of Korean women. His stories originate from traditional Korean literature, such as his novels about the problem of man's place in the world and the meaning of social activity. In the work of Lee Hee Jo there are heroes whose real life is like a dream, but as a result they are already awakened by other, internally transformed people. A critical look at the values of modern society, where wealth is recognized as the main measure, encourages a person to reconsider his life path and take the first step towards achieving inner harmony.*

**Keywords:** feminism, freedom bell, modernization, emancipation, gender equality, microsystem, satirical tale, sinsosol, kabo.

### KIRISH

Ushbu maqolada an'anaviy jamiyatda ayollarning o'rni, oilaga munosabati, farzand tarbiyasi konfutsiychilik tartiblarining kirib kelishidan avval ilohiy kuchlar tomonidan belgilab qo'yilgan qonun sifatida qarab kelingan. Qadimdan erkaklar

ayollardan ustun turishi hayot charxpalagini aylantiruvchi oltin qonun hisoblangan. Janubiy Koreya yarim orolining ozodlikga erishishi va mustaqil davlatga aylanishi, iqtisodning rivojlanib borishi, ayollar huquqlarining erkinlashuviga olib keldi. Biroq bu o‘zgarishlar gender jihatdan teng huquqlilikni taminlab bera olmadi. Ayol va erkak teng huquqliligini taminlash XIX asrda Koreya respublikasi uchun mamlakat rivoji yo‘lida asosiy maqsadlardan biriga aylandi. Hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri feministika, ya’ni gender tenglik- erkak va ayolning teng huquqlilik munosabatlari ochib berilgan koreys adabiyot namoyondasi Li Xe Jo ijodi namuna sifatida keltirib o‘tilgan. Asar orqali jamiyatda ayollarning tutgan o‘rni, farzand tarbiyasi, ijtimoiy siyosiy jarayonlarga aralashuvining salbiy va ijobiy oqibatlari to‘g‘risidagi muammolari keltirib o‘tilgan. Jumladan O‘zbekistonda xam bu masalaga jidiy yondoshish Muxtaram Prezidentimiz tomomnidan keltirib o‘tilgan yangi qonunlari keltirib o‘tish joizdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maqola o‘zbek adabiyotshunoslarining nazariy ishlariga, shuningdek, koreys olimlarining “ayol nasri”ga bag‘ishlangan tadqiqotlariga asoslanadi. Bundan tashqari, hozirgi Koreyadagi tarixiy jarayonlarning xususiyatlarini o‘rgangan o‘zbek va xorijiy tarixchi olimlarning ishlari ham o‘rin olgan. Koreyaning tarixiy yo‘lining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq holda zamonaviy koreys nasrining rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi.

### **NATIJALAR**

Amaliy ahamiyati: maqola zamonaviy koreys adabiyoti tarixiga oid referat yoki kurs ishi yozishda, zamonaviy koreys adabiyoti tarixidan kurs o‘tishda, xorijiy Sharq mamlakatlari, xorijiy Sharq mamlakatlaridagi zamonaviy adabiy jarayonlarni o‘rganish uchun xalqlar adabiyoti tarixidan ma’ruzalar kursini tuzishda foydalanish mumkin.

### **MUHOKAMA**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi.[[https://lex.uz/docs/-4013356.](https://lex.uz/docs/-4013356)] Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga doir to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga muvofiq, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy

hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur. Xususan, bu qaror davlatning barcha sohalarida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi. [<https://civil.uz/gendir-tengligi-masalasi-yangi-o‘zbekistonda-islohatlar-samarasidagi-imkoniyatlar/>.] O‘zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan. Gender tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan ta’limdagi ijobiy siljishlarni ham misol keltirsak bo‘ladi. Jumladan, 2022 yildan boshlab magistr bosqichiga o‘qishga kirgan qizlar mutlaqo bepul ta’lim olishi va bu xarajatlar butunlay davlat tomonidan to‘lanishi haqida imzolangan qonun butun xotin-qizlarning o‘rni qanchalik muhim ekanini his qildiradi. Va jamiyatda ayollar shunchaki kuzatuvchi emas, amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘la oladi. Qabul qilinayotgan qonunlar bilan bir qatorda muhtaram Prezidentimizning taklifiga binoan, mamlakatimiz tarixida ilk bora Senat raisligiga ayol kishi –Tanzila Norboyeva saylandi. Bu harakatlardan, o‘zgarishlardan nimani anglashimiz mumkin?! [<https://iiv.uz/pages/>. ]

Ma’lumki gender- tenglik erkak va ayollarning teng huquqli bo‘lishi kerak degan ma’noni o‘zida jamlagan. Ammo yuqorida aytilgan misollardan kelib chiqib ayol erkakdan ustun degan fikrga kelmasligimiz lozim. Jamiyatda erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham o‘z o‘rinlarini his qilgan xolda harakat qilishsa, mamlakat kelajagida faqatgina ulkan yutuqlar va barqaror yuksalishni ko‘ra olamiz.

Biz ayollarning huquqlari azal-azaldan e’tibordan chetda bo‘lganligini Koreya adabiyotidagi aksariyat asarlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Bunga esa koreys adabiyotining namoyondasi Li Xe Jo asarlari yaqqol misol bo‘la oladi.

Li Xejo didaktik nasrning eng mashhur namoyandalardan biri hisoblanadi. Li Xe Jo 1869-yil Kyongido provinsiyasining Pxonchon shahrida dunyoga kelgan. Uning adabiy faoliyati 1906-yilda boshlandi. 1910-1913-yillarda Li Xe Jo general-gubernator huzuridagi “Haftalik xabarnoma” gazetasining tahririyatida ishlaydi. 1913-yildan so‘ng u jamoatchilik faoliyatini tark etib, iste’foga chiqdi. Li Xe Jo 1927-yil o‘z yurti bo‘lmish Pxonchon shahrida vafot etadi. Li Xe Jo o‘z ijodi davomida bir necha o‘nlab asarlar yaratdi. Jumladan “Bahorsiz bahor”, “Ozodlik qo‘ng‘irog‘i”, “Gul qoni”, “Balzamin”, “Sochdagi qirov” kabi asarlar adibning ijodiy merosini tashkil etadi. Ammo Li Xe Joning eng yorqin asari sifatida uning “Ozodlik qo‘ng‘irog‘i” qissasi e’tirof qilinadi. Biz bu asarni koreys adabiyotining sin-sosol,

ya’ni yangi davr adabiyoti janrlariga ulkan hissa qo‘shgan asar desak also mubolag‘a bo‘lmaydi.

Li Xe Jo haqiqiy nasrning bosh vazifasi pand-nasihat qilishdan iborat deb hisoblagan. Zero u nafaqat o‘zining, balki, boshqa adiblarning ijodiga ham shunday ko‘z bilan qaragan. Aynan shuning uchun Janubiy Koreyalik adabiyotshunos Cho Yun Je bu asarni “Ma’rifatchilikka doir qo‘llanma” deb atagan.

Xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o‘rni va mavqei mavzusi Li Xe Jo ijodining asosiy mavzusi hisoblanadi. “Ozodlik qo‘ng‘irog‘i” asarida yozuvchi xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi uchun kurashchi sifatida maydonga chiqadi. Bu muammoni u sof ma’rifatchilik ruhida hal qilishga harakat qiladi. Xotin-qizlarga erkaklar bilan teng ta’lim olish huquqini berish va mamlakatni tubdan modernizatsiya qilish tarafdori sifatida o‘z g‘oyalarini ilgari suradi. Asar syujetini to‘rtta ayollardan birining tug‘ilgan kuniga yig‘ilgan “nomsiz” dugonalariga qaratilgan nutqlari, hamda qahramonlari 1908-yil 16-yanvarga o‘tar kechasi ko‘rgan tushlar haqidagi hikoyalar tashkil etadi. Har bir nutqda ma’rifatchilar tomonidan ko‘tarilgan xotin-qizlar emansipatsiyasiga, bolalar tarbiyasiga taalluqli muammolar, kanizaklarning o‘g‘illarini kamsitilishi, iyeroglif yozuvini koreys milliy alifbosiga asoslangan yozuv bilan almashtirish, xotin-qizlarning uy-yumushlarini tashkil etish masalalari bayon etiladi. Li Xe Jo ham o‘z asari janrini konkretlashtirar ekan, qissa nomi ostiga uning xususiyati, shakli va mazmunini belgilaydigan “txoron”-“muzokaralar, munozaralar, suhbat” so‘zini qo‘ygan. Ma’lumki, “xitoycha sof suhbatlar” ideallarini ro‘yobga chiqarish maqsadida olib borilgan. Li Xe Joning qissasidagi ayollar suhbatlari ham ayni shu maqsadga qaratilgan edi.

Li Xe Jo Koreyada xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi muammosini ko‘targan va uni mamlakatni madaniy rivojlantirish masalalari bilan bo‘lgan birinchi yozuvchi hisoblanadi. “Koinotning millionlab tirik mavjudotlari orasida inson eng noyob jonzotdir”, -deb yozadi muallif qissaning kirish qismida. - Inson bo‘lib tug‘ilish va o‘ziga o‘xshagan oliy mavjudotlar orasida inson erksiz yashash odamzotga osmon amr etgan vazifalarnigina bajarmaslik demakdir”, Odamlar dunyosida ayol buddist, erining hukmi ostida yashash, tirik mavjudotlar podshosi bo‘lgan inson huquqlari va erkinligi haqida hech narsa bilmaslik demakdur”.<sup>1</sup> [Собрание сочинений корейских авторов. - Сеул, 1998. С. 25.] Bu o‘rinda Ulug‘bek Hamdamning “inson mohiyatan ijtimoiy mavjudodmi yoki uning ijtimoiylashuvi faqat muhit va tarbiya orqali yuzaga chiqadimi?...insoniyatning bugungi erishgan sivilizatsiyasi darajasi ham muhitning mevasi”<sup>2</sup> [Ulug‘bek Hamdam yangi o‘zbek she’riyati. Toshkent “Adib “nashriyoti 2012.] fikrini keltirib o‘tish joizdir.

Koreyaning yigirma million aholisidan o‘n millioni erkaklardir. Ular siyosiy, huquqiy, harbiy, sanoat, savdo va qishloq xo‘jaligini o‘rgana oladilar. O‘n million ayol hatto o‘qish nimaligi ham bilmaydi. “Gazeta varag‘ini ham ikki ovlon ko‘tarish oson”, degan maqolni ham misol qiladigan bo‘lsak, o‘sha o‘n million erkak yuz yilda bitiradigan ishni ayollarning ham yordamini olgan holda o‘sha ishni ellik yilda bitira olar edi. Bu hammamiz uchun, mamlakat uchun, yurtning ozodligi uchun katta foyda bo‘lar edi. Mana mamlakatning ozodligini belgilovchi omillar qayerda yashirin deb takidlash joizdir.

Muallif inson o‘z umrining yarmini iyerogliflarni o‘rganishga va shuning o‘zi uchun o‘qimishli deb hisoblanishi mumkinligini, amalda esa u o‘z mamlakatining tarixi haqida ham, uning siyosati, qonunlari, qishloq xo‘jaligi va hokazolar haqida ham hech narsa bilmasligini ta’kidlaydigan va binobarin, uning bilimi, hayoti va faoliyati behuda degan xulosaga keladi.

Konfutsiychilik aqidalariga ko‘ra oila his-tuyg‘ularga emas, balki ota-ona, ajdodlar, urug‘ oldida o‘z burchini ado etishga asoslanar edi. Nikoh oilani kengaytirish ishiga xizmat qiluvchi marosim hisoblanar, uni tuzish va kelin tanlash yoshlarning bir-biriga moyilligi bilan ham, hatto ularning tanishuvi bilan ham bog‘liq emas edi. Asarda muzokara ishtirokchilari tomonidan o‘sha davrdagi ayollarning turmush tarzi va axloqiy huquq qoidalarga bo‘ysungan xolda itoatkorona to‘rt devor orasida kun kechirishiga mahkum etgani to‘g‘risida so‘z yuritadilar. Bu davrda ayollarga devor ortida bo‘layotgan voqealarga mulohaza yuritishiga ham ruhsat berilmas edi. “Ularga xatto dalada sholi qanday o‘shini ham bilmasdan yashash amr etilgandi. Bu dunyo bilan muloqot qilishdan mahrum bo‘lgan ayol tubanlikka yuz tutishga mahkumdir”. [Собрание сочинений корейских авторов. - Сеул, 1998. С. 24.] Bu jumлага o‘sha davr ko‘zi bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak bu davrlarda ayollarga bir buyumdek qaralgan. Barcha ishlar ekaklarning qo‘lidan keladi-yu, ayollar go‘yoki faqat uy ishlari va bola tarbiyasidan boshqa ishga yaramaydi deb takidlashgan edi.

## XULOSA

Li Xe Joning adabiyot haqidagi fikr-mulohazalari har doim kuchli qiziqish uyg‘otgan. Yozuvchining nazariy kredosi badiiy asarlar, shu jumladan nasr odamlarga hayotda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi kerak, degan aqidalarga asoslanib, “Agarda hayotda mening asarim qahramonlariga o‘xshash odamlar bo‘lsa qissa ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘zlarining yomon qilmishlaridan pushaymon bo‘lishadi va to‘g‘ri yo‘lga kirishadi , -deb yozadi adib.-Shunday qilib, mening asarim hayot yuzini ko‘rgach. Unda mavjud bo‘lgan, men ilg‘amagan kamchiliklarni bartaraf etadi”. [Иванова В.И. Новая проза Кореи. - М., 1993. С. 77.]

Ammo, shunga qaramay Li Xe Jo o‘z tasvir ob’ekti sifatida odamlar ruhiyatining jozibali qirralari-uning yetti holati: quvonch-qayg‘u, mehribonlik-darg‘azablik, muhabbat-nafrat, xohish-istaklarni tanlagan. U adabiyotda inson obrazini yaratishda til va uslubning o‘rni va ahamiyati haqida birinchi bo‘lib gap boshlagan va eski nasr tiliga xos bo‘lgan dabdabavozlikdan voz kechishga, odamlarni yozuvchi qanday ko‘rayotgan va eshitayotgan bo‘lsa shunday tasvirlashga chaqirgan. U faqat shundagina nasr “davrnin sof ko‘z gusi”ga aylanadi deb hisoblagan.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. <https://civil.uz/gendir> tengligi-masalasi-yangi-o‘zbekistonda-islohatlar-samarasidagi-imkoniyatlar.
2. <https://iiv.uz/pages/>.
3. Собрание сочинений корейских авторов. - Сеул, 1998. С. 25.
4. Ulug‘bek Hamdam yangi o‘zbek she‘riyati. Toshkent “Adib “nashriyoti 2012.
5. Иванова В.И. Новая проза Кореи. - М., 1993. С. 77.
6. Kwon Young-Min. Modern Korean Literature (II). //Seoul Journal of Korean Studies. Vol.14. December, 2001
7. Korean Literature Today. Seoul, 1999, Vol.4.
8. Kwon Young-Min. Modern Korean Literature (11). //Seoul Journal of Korean Studies. 2001. Vol.14.
9. Yung-Chang Kim. Women of Korea. A History from Ancient times to 1945. - Ewha Woman University Press. Seoul, 1997.
10. Journey to Mujin. Anthology of Korean short fiction. Seoul, KCAF, 1988
11. Баёнханова, И. Ф. (2021). KOREYS TILIDA SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA MA’NOSIGA KO’RA TURLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
12. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.
13. Фуркатовна, Б.И. (2021). ДИСКУРСИО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СТАТЕЙ О КОНЦЕПТЕ "/ЧЕЛОВЕК" 사람. Международный журнал менеджмента , 12 (2).
14. Эшимова, Ш. 2020. Особенности метафоры тропинимического происхождения. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2 (75) (апр. 2020), 81–86.

15. Kenjaboevna, S. E., & Ugli, K. M. S. (2021). The phenomenon of personalization in korean (on the example of fairy tales). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 677-681.
16. Shuxratovna, B. S. (2022). KOREYS ADIBASI PAK VAN SO IJODINING O ‘ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59.
17. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
18. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
19. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
20. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand*.
21. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
22. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century"*. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
23. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 122-125.
24. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. *Общество и инновации*, 2(2), 111-117.
25. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.* (pp. 229-231).
26. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80)), 5-10.



27. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
28. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
29. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
30. Tuhtasinov, Ithom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
31. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
32. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
33. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданият мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
34. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
35. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
36. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
37. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
38. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
39. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.